

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI



РЕФЕРАТ

MAVZU: HAYOTGA QARSHI JINOYATLAR

BAJARDI: 3-KURC 1 A ПОТОК 2 ГУРУХ ТАЛАБАСИ
САЛИМОВА ПРОДА

TOSHKENT 2011

REJA:

KIRISH

1. Hayotga qarshi jinoyatlarning umumiy tavsifi
2. Hayotga qarshi jinoyatlar
3. Qasddan odam o'ldirish
4. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish
5. Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni qasddan o'ldirish
6. Ojizligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsni qasddan o'ldirish
7. O'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o'ldirish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

O'zbekiston Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan buyon o'tgan qisqa davr mobaynida xalqimizning ma'naviyati qanchalik oshganligini, huquqiy ongini egallayotganligini, mamlakatimizda barpo etilgan va etilayotgan korxona – inshootlarni yoki bo'lmasa, dunyoda tutgan ajoyib o'rnini kim bilmaydi deysiz. Xullas, aytish joizki, asrlarga tatigulik va qolaversa, kelajak avlodlar eslab, faxrlanib yuradigan ishlar amalga oshirilmoqda. Jinoyat huquqi huquq tizimining (Konstitutsiya, fuqarolik, ma'muriy va boshqa huquq normalari bilan bir qatorda) alohida bir tarmog'idir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunida jinoiy javobgarlikka tortish hamda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun qonun normalari doirasida jazo tayinlash nazarda tutilgan, uning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi, huquq tizimining mustaqil tarmog'i ekanligini belgilovchi va huquqning boshqa turlaridan ajratib turuvchi o'ziga xos tamoyillarga egadir. Jinoyat huquqi ana shunday qonun buzuvchilarga qarshi kurash olib borish, ularni axloqan tuzatish, qayta tarbiya qilish, turli jinoyatlarning oldini olish choralarini ko'radi.

HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING UMUMIY TAVSIFI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar», deb qayd etilgan bo'lsa, uning 19-moddasida «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki cheklab qo'yishga hech kim haqli emas», deyiladi.

Konstitutsiyaning «Shaxsiy huquq va erkinliklar», «Siyosiy huquqlar», «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» deb nomlangan bo'limlarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o'z ifodasini topgan.

«Davlat, – deb ta'kidlanadi Konstitutsiyaning 43-moddasida, – fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi».

Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Jinoyat kodeksining «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo'limida hayotga, sog'liqqa qarshi, hayot yoki sog'liq uchun xavfli, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlar shaxs uchun ijtimoiy xavfi hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmagan xavfni vujudga keltiradi.

Shaxsga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligi sababli, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi birinchi bo`limi «Shaxsga qarshi jinoyatlar» deb nomlanadi.

Shaxsga faqat yuqorida aytilgan jinoyatlar sodir etilganida emas, balki boshqa obyektlarga tajovuz qilinganida, masalan, bosqinchilik, talonchilik va h.k. jinoyatlar sodir etilgan hollarda ham zarar yetadi. Shaxsga qarshi jinoyatlar tahlil qilinganida bu qilmishni sodir etgan aybdorning harakatlari aynan shaxsga zarar yetkazishga qaratilganligiga e'tibor beriladi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo`limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo`lib, ular bevosita obyekti bo`yicha quyidagi guruhlariga ajratilgan:

1) hayotga qarshi jinoyatlar;

2) sog`liqqa qarshi jinoyatlar;

3) hayot yoki sog`liq uchun xavfli jinoyatlar;


4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;

5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar


6) shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;

7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

HAYOTGA QARSHI JINOYATLAR



ODAM O`LDIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAHLILI VA TURLARI



Odam o'ldirish qasddan, huquqqa xilof ravishda yoki ehtiyotsizdan boshqa kishini hayotdan mahrum qilishdir.

Odam o'ldirishning obyekti boshqa kishining hayoti hisoblanadi.

Yoshi, sog'lig'i, yashash qobiliyatidan qat'i nazar har qanday kishining hayoti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadi. Shu sababli chaqaloq, keksa, sog'lom yoki kasal odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakat odam o'ldirish, deb belgilanadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida evtanaziya, ya'ni shaxsni o'zining roziligi bilan hayotidan mahrum etganlik uchun javobgarlik masalasi bo'yicha munozaralar avj olmoqda.

Evtanaziyani ma'qullovchi va uni qoralovchilar bo'lishiga qaramasdan, uni qonuniylashtirishdan qochmoq zarur, chunki insonga hayot xudo tomonidan ato etiladi, uni qaytib olishga faqatgina uning o'zi haqlidir, degan fikrlar ham mavjud.

Tibbiyot miya faoliyati butunlay to'xtashini biologik o'lim deb belgilaydi. Jinoyat huquqi nazariyasi tibbiyot xulosalariga asoslanadi.

Klinik o'limning yuzaga kelishi (yurakning to'xtashi) bu hali, insonning o'limi degani emas, chunki tibbiyot xodimlari zamonaviy sharoitlarda yurakning ishlash faoliyatini qayta tiklash imkoniyatiga ega. O'lgan odamni tirik deb, uning hayotiga tajovuz qilish, o'ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ushbu jinoyatning obyekti boshqa kishining hayoti hisoblanadi.

O'z joniga qasd qilish jinoyat qonuni bilan jazolanmaydigan qilmishdir.

O'zga shaxsning hayotiga boshqa shaxs kim bo'lishidan qat'iy nazar, uning xatto ota-onasi bo'lsa ham, mahrum qilishga haqqi yo'q. Inson hayoti eng muqaddas va hech qanday boshqa narsa bilan almashtirib bo'lmas shaxsning boyligidir.

Obyektiv tomondan odam o'ldirish qonunga xilof ravishda boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi.

O'ldirish faol harakatlar bilan, shuningdek, harakatsizlik tufayli ham sodir etilishi mumkin. Ko'pincha odam o'ldirish faol harakatlar orqali sodir etiladi, ya'ni bunda aybdor jabrlanuvchiga o'z xususiyatiga ko'ra shaxsni o'ldirishi mumkin bo'lgan muayyan tan jarohatlarini yetkazishdek (har qanday qurol-ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish) jismoniy ta'sir ko'rsatadi. Bu jinoyat ayrim hollarda jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir qilish (sud amaliyotida o'limning qo'rqitish tufayli ro'y berganlik holatlari ham ma'lum) yo'li bilan ham sodir qilinishi mumkin.

Odam o'ldirish harakatsizlik natijasida sodir etilganida shaxs o'z xizmat vazifasi bilan bog'liq yoki bajarish imkoniyati bo'lgan harakatlarni amalga oshirmaydi.

Demak, harakatsizlik tufayli odam o'ldirish faqat shaxsning o'z vazifasini bajarmasligi yoki o'limning oldini olishi mumkin bo'lgan hollarda harakat qilmasligi tufayli sodir etiladi.

O'zga shaxsning joniga qasd qilgan aybdor nazarda tutilganidan boshqa kishining hayotiga g'ayriqonuniy qasd qilsa, ya'ni jabrlanuvchining shaxsiga nisbatan adashsa, bu hol jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi va aybdorning qilmishi odam o'ldirish, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam o'ldirish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, uni tugallangan deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi jinoiy oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim.

Bunday oqibatning ro'y bermaganligi odam o'ldirishni tugallanmagan, ya'ni odam o'ldirishga tayyorgarlik yoki unga suiqasd deb, O'zbekiston Respublikasi

Jinoyat kodeksi 25-moddasi orqali aybdorni javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Shaxsni tamom bo'lgan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortish uchun jinoiy qilmishi bilan ro'y bergan o'lim orasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligini aniqlash zarurdir.

Qilmish va o'lim o'rtasida sababiy bog'lanishning yo'qligi shaxsni odam o'ldirish uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladi, mazkur qilmish jabrlanuvchining sog'lig'iga turli darajadagi shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan moddalardan biri bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Ya'ni: bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va uni o'ldirishni istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorning irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra (jabrlanuvchining faol qarshiligi, boshqa shaxslarning aralashuvi, jabrlanuvchiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatganlik va hokazo vaziyatlar tufayli) kelib chiqmaydi. Shu sababli aybdor-ning jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish niyatida harakat qilgan-qilmaganligini; o'lim yuz berishini istagan-istamaganligi-ni va qanday holatlar istalgan natija yuz berishiga to'sqinlik qilganligini aniqlash zarur.

Odam o'ldirish jinoyatini sodir etuvchi harakatlar muqarrar ravishda huquqqa xilof bo'lishi lozim.

Subyektiv tomondan odam o'ldirish qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin va ayb shakli aniqlanishi lozim.

Odam o'ldirish to'g'ri va egri qasd bilan sodir etilishi mumkin.

Agar aybdor va jabrlanuvchi do'stona munosabatda bo'lib, bir-birini tushunib, ammo ma'lum holatlarda, masalan qiz bolani rashk qilish tufayli biri ikkinchisiga pichoq bilan jarohat yetkazib shu vaqtning o'zida o'z harakatlaridan pushaymon bo'lib, jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatgan, «tez yordam»ni chaqirgan, uni


qutqarish uchun qon topshirgan va h.k. harakatlarni qilgan bo'lsa-da, jabrlanuvchi yetkazilgan jarohatlar tufayli o'lgan bo'lsa, barcha holatlarni e'tiborga olgan holda aybdorning qilmishi JK 97-moddasida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirish, deb emas, balki JK 104-moddasi 3-qismi bilan, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, deb kvalifikatsiya qilinadi.

JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti 13 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir; 97-moddaning 1-qismida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirishning subyekti 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish (JK 98-modda); onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-modda); zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-modda); ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 101-modda); ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish (102-modda); o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (103-modda) jinoyatlarining subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Odam o'ldirish bo'yicha jinoyat ishlari ko'rilayotganida aybdor shaxsini, uning shaxsiga oid xususiyatlarini va jabrlanuvchining xulq-atvorini chuqur o'rganish zarurdir. Bu jinoyatning sodir etilish shart-sharoitlari, motivini aniqlash va jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega.

Bir necha shaxs javobgarlikka tortilgan qasddan odam o'ldirish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish chog'ida sudlar har bir sudlanuvchining jinoyat sodir etishdagi ishtiroki darajasini o'rganishi lozim. Bunda jinoyatning bajaruvchilari sifatida odam o'ldirishga qaratilgan qasd asosida harakat qilgan va bevosita jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilish jarayonida qatnashgan shaxslar e'tirof etilishi maqsadga muvofiq.

**JINOYAT QONUNIGA BINOAN ODAM
O`LDIRISHNING QUYIDAGI TURLARI MAVJUDDIR:**



QASDDAN ODAM O`LDIRISH

Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikki qismdan iborat bo`lib, ushbu moddaning 1-qismida «oddiy» odam o`ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Albatta, odam o`ldirish «oddiy» bo`lishi mumkin emas.

Jinoyatni JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish inkor usuli bilan amalga oshiriladi. Avvalo sodir etilgan qilmishda JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan odam o`ldirganlik uchun javobgarlikni og`irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi va JK 98-102-moddalaridagi yengillashtiruvchi holatlarning borligi aniqlanadi, agarda yuqorida aytilgan holatlar bo`lmasa, aybdorning qilmishi JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O`ch olish maqsadida, rashk tufayli, tuzalmaydigan kasalni azobdan qutqarish maqsadida jabrlanuvchining iltimosiga ko`ra, mushtlashish vaqtida shaxsni o`ldirish, hasad, qo`rqoqlik va h.k. tufayli sodir etilgan odam o`ldirish JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O`z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o`ldirishdan boshqa barcha holatlarda o`ch olish maqsadida shaxsni o`ldirganligi uchun aybdor JK 97-modda 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi. Dastlab aytib o`tilgan holatda odam o`ldirganlik JK 97-modda 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi, buning uchun odam o`ldirish aynan shaxsiy munosabatlar tufayli o`ch olish maqsadida sodir etilganligini aniqlash lozim.

Shaxsiy munosabatlar tufayli o`ch olish maqsadida odam o`ldirishdan bezorilik oqibatida odam o`ldirishni farqlash lozim. Bezorilik oqibatida odam o`ldirishga jabrlanuvchining ahamiyatga ega bo`lmagan harakati (chekish uchun sigareta bermaslik, biror korxonaning qayerda joylashganligini aytmalik va h.k.) bahona bo`ladi yoki u hech bir sababsiz ham amalga oshiriladi.

O`ch olish motivi jabrlanuvchining xulq-atvori, xatti-harakati tufayli bevosita odam o`ldirilishidan oldin yoki ancha ilgari vujudga kelishi mumkin.

Shaxsiy munosabatlar tufayli bevosita odam o`ldirish sodir bo`lishdan avval o`ch olish motivi paydo bo`lgan holatlarda, odam o`ldirish kuchli ruhiy hayajonlanish yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish yoxud ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish tufayli sodir etilmaganligini ham aniqlash lozim.

Rashk tufayli odam o`ldirish ham JK 97-modda 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Odam o`ldirishning motivi sifatidagi rashk o`zida ishonchsizlik, egoizm, qahr-g`azab kabi elementlarni jamlanadi.

Ko`pincha rashk tufayli odam o`ldirishga er yoki xotinning xayoliy xiyonat qilganligi, jabrlanuvchi tomonidan aybdorning turmushga chiqishga yoki uylanishga rozilik bermaganligi yoki jabrlanuvchining nikohsiz birga yashash to`g`risidagi taklifning rad etganligi sabab bo`ladi.

Agar qilmishda JK 97-moddasi 2-qismi nazarda tutilgan og`irlashtiruvchi holatlar bo`lmasa, kimning aybi bilan boshlanganligidan qat'i nazar urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o`lsa, aybdorning qilmishi JK 97-modda 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o`ldirilganida qilmishni kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan holda yoxud ehtiyotsizlik oqibatida qasddan odam o`ldirishdagidek javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar ham mavjud bo`lishi mumkin. Yuqorida aytilgan yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo`lsa, urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o`ldirish JK 98-, 100-, 102-moddalarining birortasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Qilmishni urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o`ldirish deb kvalifikatsiya qilish uchun faqat urishish yoki mushtlashish bo`lganligini ta'kidlamasdan, balki jinoyatning sodir etilish motivi va haqiqiy holatlarini aniqlash zarur.

Urishish yoki mushtlashish sodir etilgan odam o`ldirishning bir jihati bo`lib, u muayyan motiv (bezorilik oqibatida, tamagirlik niyatida, rashk, o`ch olish, hasad va h.k. tufayli) bilan sodir etiladi.

Odam o'ldirilganida mushtlashish va urishishning o'zi, muayyan holatlarni e'tiborga olmaganda, qilmishni JK 97-modda 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun zaruriy belgi hisoblanmaydi.

JK 97-modda 2-qismida jazoni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu normada odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi o'n yettita holat nazarda tutilgan bo'lib, bu ro'yxat qat'iydir, ya'ni JK 97-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi holat bo'lmasa, qilmish ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ammo JK 97-modda 2-qismida ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi holatlardan birortasi yoki bir vaqtning o'zida bu holatlarning bir nechitasi mavjud ekanligi qilmishni JK 97-modda 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi. Jinoyat ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinganida, og'irlashtiruvchi holatning har biri ko'rsatilmog'i va u jazo tayinlanayotganida e'tiborga olinmog'i lozim.

Jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda qasddan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirganlikni kvalifikatsiya qilish bo'yicha turli fikrlar mavjud. JK 97-moddasi 2-qismidagi holatlar jinoyat tarkibining elementlariga ko'ra tasniflangan.

USHBU TASNIFGA BINOAN

Birinchi guruhga jinoyatning obyektiga taalluqli bo`lgan holatlarni kiritish lozim.

Bu guruhga:

a) Ikki yoki undan ortiq shaxsni;

b) Homiladorligi aybdorga ayon bo`lgan ayolni;

v) Ojiz ahvolda ekanligi aybdorga ayon bo`lgan shaxsni;

g) O`z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o`ldirganlik kiradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi holatlar odam o`ldirishning obyektiv tomoniga taalluqli bo`lib, bu guruhga:

d) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo`lgan usulda;

ye) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;

j) o`ta shafqatsizlik bilan;

z) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo`rlilik ishlatib, g`ayritabiiy usulda qondirish bilan bog`liq holda odam o`ldirish kiradi.

Uchinchi guruhga odam o'ldirishning subyektiv tomoni bilan bog'liq holatlar:

i) tamagirlik niyatida;

k) milliy yoki irqiy adovat zahirida;

l) bezorilik oqibatida;

m) diniy taassublar zahirida;

n) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish

o) boshqa bir jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini

To'rtinchi guruhga jinoyatning subyektiga taalluqli holatlar jamlangan bo'lib, ular

p) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda;

r) takroran yoki xavfli retsdivivist tomonidan;

s) o'ta xavfli retsdivivist tomonidan qasddan odam o'ldirilishi holatlarini o'z ichiga oladi.

Odam o'ldirishning bu turi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, aybdorda ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish niyati bo'ladi. Masalan, Semyonov degan shaxsning o'ynashi bo'lib, uning yana boshqa kishi bilan uchrashib turishi haqidagi gap-so'zlar seymonovning qulog'iga yetadi.

Jk 97-modda 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilayotganda jinoyatchining harakatlari yagona qasd bilan qamrab olinganligi va bir vaqtda sodir etilganligiga e'tibor berish lozim.

Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga qasd qilinganligi, jinoiy niyatning yagonaligidan dalolat beruvchi zaruriy belgidir

Yagona jinoiy niyat bilan qamrab olingan, turli vaqtlarda sodir etilgan odam o'ldirishni ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish, deb topish uchun to'g'ri qasdning mavjudligini aniqlash lozim.

Bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq kishini o'ldirish nafaqat to'g'ri qasd, balki egri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin.

Agar ikki yoki undan ortiq shaxsning o'ldirilishi yagona jinoiy niyat bilan bog'liq bo'lmasa va boshqa kishini hayotdan mahrum qilishning har bir holatida mustaqil paydo bo'lgan qasd bilan sodir etilsa, bu qilmish JK 97-moddasining 2-qismi "a" bandi bilan kvalifikatsiya qilinmasligi lozim. Bunday qilmishlar takroriylik belgisi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim[.

Aybdor ikki yoki undan ortiq kishini o'ldirishga qasd qilganda bir kishining qasddan o'ldirilishi va boshqa shaxsning hayotiga suiqasd qilinishi ikki yoki undan ortiq shaxsning tugallangan o'ldirilishi sifatida baholanmasligi kerak, chunki bunda ikki va undan ortiq shaxsni hayotdan mahrum etishga oid jinoiy niyat aybdorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli amalga oshmagan bo'ladi. Bunday hollarda qilmish, jinoiy xatti-harakat izchilligiga bog'liq bo'lmagan holda, bir kishini o'ldirganlik sifatida, og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganda JK 97-moddasi 2-qismi yoxud mazkur holatlar mavjud bo'lmaganda, JK 97-moddasi 1-qismi va ikki yoki undan ortiq shaxs hayotiga suiqasd qilgalik uchun JK 25-moddasi 2-qismi hamda JK 97-moddasi 2-qismi "a" bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak. Bu holatlar jazo tayinlashda inobatga olinadi.

Qasddan odam o'ldirish

**JK
97-m
2-q**

Og'irlashtiruvchi holatlarda	Yengillashtiruvchi holatlarda
Ikki yoki undan ortiq shaxsni	
Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni	
Aybdorga ayon bo'lgan ojiz ahvoldagi shaxsni	Kuchli ruhiy
Boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda	
Ommaviy tartibsizliklar jarayonida	Onaning o'z chaqalog'ini o'ldirish (JK 99-moddasi)
o'ta shafqatsizlik bilan	
Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatish g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda	
ta'magirlik niyatida	
Milliy yoki irqiy adovat zahirida	
Bezorilik oqibatida	Zaruriy mudofa chegarasidan chetga chiqib (JK 100-moddasi)
Kishi a'zolarini kesib olib boshqa kishiga ko'chirish (transplantat yoki murdaning qismlaridan foydalanish masadida)	
Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida	
Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yohud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda	Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chegara-sidan chiqib odam o'ldi-rish (JK 101-moddasi)
Takroran yoki xavfli retsedivist tomonidan	
o'ta xavli retsedivist tomonidan	

HOMILADORLIGI AYBDORGA AYON BO`LGAN AYOLNI QASDDAN O`LDIRISH

Jinoyatni jk 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ayolning homiladorligi aybdorga avvaldan ma'lum bo`lganligini aniqlash zarur.

Aybdor jabrlanuvchining homiladorligi faktini oldindan anglamagan hollarda aybdorning xatti-harakati jk 97-moddasi 2-qismi “b” bandi bo`yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Oldindan bilish aybdor shaxs ayolning homiladorligidan xabardorligini nazarda tutadi.

Aybdorning xabardorligi shaxsiy kuzatishlariga (homila muddati kattaligida), davolash muassasasi tomonidan berilgan homiladorlikni tasdiqlovchi rasmiy hujjat bilan tanishganligiga asoslangan bo`lishi yoki jabrlanuvchining o`zi, uning ota-onasi, do`stlari, tanishlari bergan ma'lumotlardan kelib chiqishi mumkin.

Homiladorligi ayon bo`lgan, deganda, aybdor ayolning homiladorligini bilganligi tushuniladi.

Aybdor homiladorlikning oxirgi oylarida ayolning gavda tuzilishiga qarab, uning homiladorligini to`la anglashi mumkin. homiladorlikning dastlabki oylarida uni bilish murakkab, biroq bu haqida aybdor jabrlanuvchining o`zi, ota-onasi, dugonalari va h.k. eshitgan bo`lishi mumkin.

Qilmishni jk 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti aybdor tomonidan ayolning homiladorligini bila turib o`ldirilganligi hisoblanadi.

Agar odam o`ldirish tamagirlik niyatida, bezorilik oqibatida yoki boshqa motivlar bilan sodir etilgan bo`lsa, aybdor faqat jk 97-modda 2-qismi «b» bandi bilan emas, balki ushbu moddaning tegishli bndlari bilan ham javobgarlikka tortilishi kerak.

OJIZLIGI AYBDORGA AYON BO`LGAN SHAXSNI QASDDAN O`LDIRISH

Aybdor ojizligi o`ziga ayon bo`lgan shaxsni qasddan o`ldirsa (onaning o`z chaqalog`ini qasddan o`ldirishdan tashqari), uning qilmishi jk 97-modda 2-qism «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ojizlik deganda jabrlanuvchining ruhiy yoki jismoniy tomondan nochorligi tufayli, aybdor tomonidan o`zining hayotiga qilinayotgan tajovuzni qaytara olmasligi tushuniladi.

Ojiz ahvol deganda, jabrlanuvchining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy jihatdan (jismoniy nuqsonlari, ruhiyati buzilganligi, juda yosh yoki keksaligi, qattiq og`riq yoki bexush holatda yoxud uyquda bo`lganligi, alkogol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida og`ir darajada mastlik tufayli) o`zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko`rsatishga qodir emaslik yoki o`ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyatini va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o`z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushunilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo`lishi shart.

Chaqaloqni ojiz ahvoldagi odam deb e'tirof etish zarurligiga qaramasdan, uning tug`ilishi chog`ida yoki undan keyin onasi tomonidan o`ldirilishi JK 99-moddasida ko`zda tutilgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarganligi sababli JK 97-moddasining 2-qismi "v" bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Hayotiga bo`lgan tajovuzni bartaraf eta olmasliklarini e'tiborga olib, yosh bolaning, keksa kishining o`ldirilganligini, jabrlanuvchini uxlab yotganida, qattiq mast holatida yoki ruhiy kasal ekanligini bila turib o`ldirganlik ham JK 97-modda 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib sodir etilgan odam o`ldirishni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning motivlariga e'tibor bermiq kerak. Shaxsning ojizligini bila turib, uni o`ldirish, ya'ni tamagirlik yoki bezorilik oqibatida, o`ta shafqatsizlik bilan va h.k. motivlar bilan sodir etilgan bo`lsa, aybdorning qilmishi bu motivlar ko`rsatilgan JK 97-moddasining boshqa bandlari bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

O`Z XIZMAT YOKI FUQAROLIK BURCHINI BAJARISHI MUNOSABATI BILAN SHAXSNI YOKI UNING YAQIN QARINDOSHLARINI QASDDAN O`LDIRISH

Odam o`ldirishning bu turida jabrlanuvchining o`limi uning xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishdek ijtimoiy foydali faoliyati bilan bog`liq holda ro`y beradi

O`z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o`ldirishi (JK 97-moddasi 2-qismi “g” bandi) o`ch olish maqsadida jabrlanuvchining o`z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi oqibatida kelib chiqqan qasddan odam o`ldirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Sabablari aniqlanmagan holda ham, ya'ni odam o`ldirish jabrlanuvchining o`z qonuniy faoliyatiga qarshilik ko`rsatish maqsadida yoxud uning bundan keyingi aybdor uchun nojoiz xizmat yoki fuqarolik faoliyati bilan bog`liq hollarda sodir etilganda ham shunday kvalifikatsiyaga yo`l qo`yilishi mumkin.

Jabrlanuvchini xizmat yoki fuqaroviy burchini bajarishi munosabati bilan undan o`ch olish maqsadida qasddan o`ldirganlik JK 97-modda 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Shaxsning xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan yoki uning qonuniy talabiga to`squinlik qilish maqsadida o`ldirilishining motivi aniqlanmagan hollarda ham jinoyatchi O`zR JK 97-modda 2-qismi «g» bandi bilan javobgarlikka tortiladi.

Yaqin qarindoshlar deganda, jabrlanuvchi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo`lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari tushuniladi.

Odam o`ldirishning ushbu turida mansabdor shaxs, hokimiyat vakili, shuningdek har qanday shaxs (ishchi, qorovul va h.k.) jabrlanuvchi bo`lishi mumkin.

Xizmat vazifasini bajarish deganda, har qanday muassasa, korxona va tashkilotda xizmat bo`yicha yuklatilgan vazifani bajarayotgan har qanday shaxsning faoliyati tushuniladi

O`z xizmat burchini qonuniy bajarayotganligi tufayli sodir etilgan qotillik JK 97-moddasi 2-qismi “g” bandi bo`yicha kvalifikatsiya qilinadi. Xizmat burchini bajarayotgan shaxsning xatti-harakati qonuniy bo`lmasa va aybdor muayyan javob harakati ko`rsatib, uni o`ldirgan bo`lsa, unga JK 97-moddasining 2 qismi “g” bandida ko`zda tutilgan belgini ayb sifatida qo`yib bo`lmaydi.

Odam o`ldirishni JK 97-moddasining 2-qismi “g” bandi bo`yicha kvalifikatsiya qilishda jinoyatning jabrlanuvchi o`z xizmat vazifasini bajarayotgan paytda yoki boshqa vaqtda sodir etilganligi ahamiyatga ega emas. Shu o`rinda qasddan odam o`ldirish jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshi o`z xizmat vazifasini bajargani yoki shunday faoliyati uchun qasd olish maqsadi bilan bog`liq holda sodir etilganligini aniqlash muhim.

Fuqarolik burchini bajarish deganda, har qanday kishining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoki boshqa qonunlarda belgilab qo`yilgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga ham, boshqa ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishiga ham yo`naltirilgan ijtimoiy foydali va huquqiy faoliyatini tushunish lozim.

Masalan, bu huquqbuzarlikning oldini olish, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to`g`risida yoxud huquqbuzarlik sodir etilganligi uchun qidirilayotgan shaxs turgan joy haqida hokimiyat organlariga xabar berish, guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida shaxsning jinoyat sodir etganligini fosh etuvchi ko`rsatmalar berishi va hokazo bo`lishi mumkin.

Shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o`ldirganlik uchun javobgarlik jabrlanuvchi tomonidan o`zining xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishga qaratilgan u yoki bu harakatlar qachon bajarilganidan qat'i nazar, vujudga keladi va odam o`ldirish o`z xizmat burchini bajarganligi uchun jabrlanuvchidan o`ch olish maqsadida sodir etilganligini aniqlash muhimdir.

O`z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o`ldirganlik uchun javobgarlik, jabrlanuvchining u yoki bu xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish bo`yicha ijtimoiy foydali harakatlari qachon sodir etilganligidan qat'i nazar vujudga keladi.

Jabrlanuvchini xizmat yoki fuqarolik burchini o'tashi munosabati bilan qasddan o'ldirish va odam o'lishiga sabab bo'lgan terrorizm (JK 155-modda 3-qismi «a»bandi)ni farqlash lozim.

JK 97-modda 2-qismi «g» bandida javobgarlik belgilangan odam o'ldirish jabrlanuvchilardan biror narsa talab qilinmasdan sodir etiladi.

Terrorizmدا jabrlanuvchi terrorist tomonidan qo'yilgan talablarni bajarmaganidan so'ng o'ldiriladi va aybdorning qilmishi JK 155-modda 3-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Belyaev A.E. ,Vorontsov V.M. Davlatga qarshi jinoyatlarni tashkil qiluvchi chaqiriqlar uchun jinoiy javobgarlik.-M.:1991

2. Mualliflar jamosi O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi T: TDYUI 2008

3. Kadirov M. Ugolovnoye pravo Respubliki Uzbekistan. Osobennaya chast. T.: Adolat, 1997.

4. Kommentariy k ugolovnomu kodeksu Respubliki Kazaxstan, Almati, Baspa. 1999.